

**ANALYSIS OF THE EXISTING MECHANISM FOR REPORTING CORRUPTION-RELATED VIOLATIONS IN UZBEKISTAN****Zohidjonov Azizbek Shermatjon ugli**E.mail [a.zohidjonov.10@gmail.com](mailto:a.zohidjonov.10@gmail.com)

Master's student at Tashkent State Law University

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim bo'g'ini hisoblangan xabar berish mexanizmlarining mavjud holati, samaradorligi va kamchiliklari, E-anticor.uz platformasi, davlat organlarining ishonch telefonlari va davlat organlaridagi komplayens-nazorat tizimlarining huquqiy va amaliy asoslari o'rganiladi. Shuningdek, xabar beruvchi shaxslarni himoya qilishning mamlakatimizda mavjud bo'lgan mexanizmlarining xalqaro standartlariga qanchalik mos kelishi qiyosiy-huquqiy tahlil qilinib, mazkur mexanizmlarni takomillashtirish va xabar beruvchilarning huquqiy, itimoiy hamda mehnat sohalarida himoyasini ta'minlash yuzasidan amaliy takliflar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, huquqbuzarlik, xabar berish mexanizmi, xabar beruvchilar himoyasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, ishonch telefoni, anonim murojaat, huquqiy tartibga solish

**Аннотация:** В данной статье проведён анализ существующего механизма информирования о коррупционных правонарушениях в Республике Узбекистан. В исследовании изучены правовая основа, установленная Законом Республики Узбекистан «О противодействии коррупции», институциональная деятельность Агентства по противодействию коррупции, телефоны доверия, системы анонимных обращений, онлайн-платформы, а также система защиты лиц, сообщивших о коррупции. На основе сравнительного анализа с зарубежным опытом оценена эффективность механизма информирования о коррупции, выявлены существующие проблемы и разработаны научно-практические предложения по их решению.

**Ключевые слова:** коррупция, правонарушение, механизм информирования, защита информаторов, Агентство по противодействию коррупции, телефон доверия, анонимное обращение, правовое регулирование.

**Abstract:** This article analyzes the existing mechanism for reporting corruption-related offenses in the Republic of Uzbekistan. The study examines the legal framework established by the Law of the Republic of Uzbekistan "On Combating Corruption" (2017), the institutional activities of the Anti-Corruption Agency, hotlines, anonymous reporting systems, online platforms, and the whistleblower protection system. Based on a comparative analysis with foreign experience, the effectiveness of the corruption reporting mechanism in the country has been assessed, existing problems have been identified, and scientific-practical proposals for their resolution have been developed.

**Keywords:** corruption, offense, reporting mechanism, whistleblower protection, Anti-Corruption Agency, hotline, anonymous reporting, legal regulation

**Kirish**

Korrupsiya bugungi kunda global miqyosda eng dolzarb muammolardan biri bo'lib, u davlatlarning siyosiy barqarorligi, iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy adolat tamoyillariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining so'nggi hisob-kitob natijalariga ko'ra korrupsiyaning jahon iqtisodiyoti uchun yetkazayotgan yillik zarari miqdori dunyo yalpi ichki mahsulotining (YaIM)

**5 foizini** tashkil etadi. 2025-yilda jahon YaIM miqdori taxminan **115 trillion AQSH dollarini**

tashkil etishi prognoz qilinayotganini hisobga olsak, korrupsiya va unga bog‘liq noqonuniy oqimlar natijasida global miqyosda qariyb **5,75 trillion dollar** yo‘qotilishi vujudga keladi<sup>1</sup>.

Ushbu raqamlar korrupsiyaning makroiqtisodiy yukini yaqqol ko‘rsatib, bu shunchaki axloqiy yoki mahalliy boshqaruv muammosi emas, balki global o‘shish, investitsiyalar va taraqqiyotga to‘sqinlik qiluvchi jiddiy omil ekanligini yaqqol isbotlaydi. BMT Bosh kotibi Antonio Guterresh ta‘kidlaganidek: “Korrupsiya odamlarni maktab va kasalxonalaridan mahrum qiladi, investorlarni vahimaga soladi, tabiiy resurslar talon-taroj qilinishi, shuningdek, boshqa turli jinoyatlar paydo bo‘lishiga shart-sharoit yaratadi”<sup>2</sup>.

Korrupsiyaviy jinoyatlari ko‘p hollarda ikki tomon manfaatlarini o‘zida ifodalaydi va bu ushbu jarayonni yopiq holda ikki shaxsning o‘rtasida aniqlanmasdan qolib ketishiga olib keladi. Shaxslar xabar bermasa korrupsiyaviy jinoyatlar kam hollarda huquqni muhofaza qiluvchi organlari e‘tiboriga tushadi. Shu nuqtai nazardan, har qanday davlat uchun korrupsiya holatlari to‘g‘risida ma‘lumotga ega bo‘lish korrupsiya holatlarini barvaqt oldini olinishi, uning oqibatlarini, unga olib keluvchi sabab va sharoitlarni o‘rgangan holda o‘z vaqtida bartaraf etilishi hamda qilmish uchun jazo muqarrarligini ro‘yobga chiqarilishiga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning **maqsadi** — O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar berishning mavjud mexanizmini huquqiy, institutsional va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilish, uning samaradorligini baholash hamda takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

#### Asosiy qism

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning yaxlit davlat siyosati sifatida shakllanishi 2016-yildan boshlab amalga oshirila boshlandi. Ushbu sohadagi islohotlarni shartli ravishda to‘rt bosqichga ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchi bosqich — huquqiy bazani shakllantirish bosqichi (2017). Bu davrda O‘zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida"<sup>3</sup>gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosiy huquqiy ramkasini belgilab berdi. Qonunning 26-moddasida davlat organi xodimlarining korrupsiya oid huquqbuzarlik faktlari to‘g‘risida xabar berish majburiyati, 28-moddasida esa xabar beruvchi shaxslarni himoya qilish kafolatlari mustahkamlandi. Shuningdek, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "Harakatlar strategiyasi"<sup>4</sup> orqali korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e‘tirof etildi.

Ikkinchi bosqich — institutsional mexanizmlarni yaratish bosqichi. 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning PF-6013-sonli Farmoniga muvofiq “Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi”<sup>5</sup> tashkil etildi. Shuningdek, Oliy Majlis palatalari huzurida korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog‘liq alohida qo‘mita, korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi faoliyat yurita boshladi. 2019-yildan boshlab davlat organlari va tashkilotlarida kompayens-nazorat (compliance control) bo‘limlari joriy etilib, ushbu bo‘limlar zimmasiga korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, xodimlar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi huquqiy madaniyatni shakllantirish va ichki murojaatlarni ko‘rib chiqish vazifalari qo‘yildi.

Uchinchi bosqich - raqamli mexanizmlarni joriy etish bosqichi. Ushbu davrda fuqarolar uchun xabar berishning asosiy kanallari sifatida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining e-anticor.uz elektron platformasi, 1253-raqamli ishonch telefoni, davlat organlari hamda

<sup>1</sup> <https://www.bakertilly.global/insights/corruption-the-shadow-on-global-development>

<sup>2</sup> <https://www.un.org/sg/en/content/sg/statements/2018-12-09/secretary-generals-message-international-anti-corruption-day-scroll-down-for-french-version?hl=ru-RU>

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi 419-sonli Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida Qonuni <https://lex.uz/docs/-3088008>

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni <https://lex.uz/docs/-3107036>

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 29.06.2020 yildagi PQ-4761-sonli Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi qarori <https://lex.uz/docs/-4875782>

vazirliklarning maxsus “ishonch telefonlari” shuningdek, Prezident huzuridagi murojaatlarni qabul qiluvchi xalq va virtual qabulxonalarini ishga tushirildi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida barcha darajadagi davlat idora rahbarlarining “sayyor qabullar” o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

To'rtinchi bosqich - 2023–2030-yillarni qamrab oluvchi hozirgi bosqich. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashishni yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”<sup>6</sup>gi Farmoni va “O'zbekiston - 2030”<sup>7</sup> strategiyasi doirasida korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishning raqamli va institutsional mexanizmlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur farmon bilan 2023–2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi tasdiqlanib, 9 ta yo'nalish bo'yicha 30 dan ortiq aniq chora-tadbirlar belgilandi. 2024-yilda qabul qilingan “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”<sup>8</sup>gi Qonun ham ushbu bosqichning muhim natijasi hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda mamlakatda jami 6 898 nafar shaxs tomonidan 5 716 ta korrupsiyaga oid jinoyat sodir etilganligi aniqlangan. Shuningdek, 2024-yilda Agentlik tomonidan 327 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalari korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilib, ularning 71 foizida (233 loyiha) 676 ta korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar aniqlangan va bartaraf etish choralari ko'rilgan. E-Anticor.uz platformasiga 2024-yil davomida 4 176 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, bu 2023-yildagi 3 545 ta murojaatga nisbatan 17,8 foizga oshgan<sup>9</sup>. Ushbu ko'rsatkichlar xabar berish mexanizmining muayyan darajada samara berayotgani ko'rsatadi.

Biroq, Transparency International tashkilotining so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Korrupsiyani qabul qilish indeksi (CPI)da 2024-yilda 182 ta davlat orasida 121-o'rinni egallab, 100 ballik shkala bo'yicha 32 ball to'plagan. 2025-yilda esa ushbu natija 31 ballga tushgan. 2013-yildagi 17 balldan 2023-yildagi 33 ballgacha bo'lgan barqaror o'sish davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarning ma'lum darajadagi yuqori samarasini ko'rsatgan bo'lsada, indeksning so'nggi yillarda biroz pasayishi korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligidan dalolat beradi<sup>10</sup>.

Ushbu ko'rsatkichning pasayishi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchi - kompaniyalar nazorat bo'limlari ko'pincha rasmiy tuzilma sifatida faoliyat yuritib, mustaqil tekshiruv o'tkazish vakolatiga ega emas va ichki xabar berish kanallari yaxshi rivojlanmagan.

Ikkinchi, Agentlikka kelib tushgan 4 176 ta murojaatdan atigi 50 tasi ijobiy hal etilgan (1,2 foiz), bu murojaatlarning katta qismi bevosita natija bermaganligini ko'rsatadi.

Uchinchi, ishonch telefonlari orqali kelib tushgan murojaatlarning amaliy natijalari to'g'risida ommaga oshkora hisobot taqdim etilmaydi.

To'rtinchidan, Agentlik rahbari Akmal Burxonovning ta'kidlashicha<sup>11</sup>, 2024-yilda korrupsiya haqida xabar bergan 40 ta fuqarodan 1 tasiga rag'batlantirish choralari

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 27.11.2023 yildagi PF-200-sonli Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-6676585>

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 16.02.2026 yildagi PF-21-son Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni <https://lex.uz/docs/-8050769>

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 05.06.2024 yildagi O'RQ-931-sonli Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi Qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-6952742>

<sup>9</sup> [https://uza.uz/uz/posts/2024-yilda-korrupsiya-bilan-bogliq-5-ming-716-jinoyat-sodir-etilgan\\_679303#:~:text=2024%20yilda%20korrupsiyaga%20oid%20jinoyatlar%20sodir%20etish,yilda%20respublika%20bo'yicha%20jami%206%20ming%20898](https://uza.uz/uz/posts/2024-yilda-korrupsiya-bilan-bogliq-5-ming-716-jinoyat-sodir-etilgan_679303#:~:text=2024%20yilda%20korrupsiyaga%20oid%20jinoyatlar%20sodir%20etish,yilda%20respublika%20bo'yicha%20jami%206%20ming%20898)

<sup>10</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/11/transparency-international/>

<sup>11</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2026/02/08/corruption/>

ko‘rilgan bo‘lsa-da, ulardan 39 tasiga faqat yozma minnatdorchilik bildirilgan - bu rag‘batlantirish mexanizmining amalda samarasiz ekanligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari OECD ning 2024-yil noyabr oyida e‘lon qilingan O‘zbekistondagi korrupsiyaga qarshi islohotlar monitoringining 5-raundi bazaviy hisobotida ham xabar beruvchilarni himoya qilish ko‘rsatkichi past darajada ekanligi alohida qayd etilgan<sup>12</sup>. Bu esa mavjud mexanizmlar ichida aynan xabar berish mexanizmini takomillashtirishga ustuvor e‘tibor qaratish zarurligini tasdiqlaydi.

Xalqaro amaliyotda xabar berish mexanizmining samaradorligini oshirishning turli modellari shakllangan. Xususan Anglosakson modelida (AQSh, Buyuk Britaniya) xabar beruvchining moddiy manfaatdorligi va “ommaviy manfaat” (public interest) ustuvorligiga urg‘u beriladi. Masalan, AQShning

1863-yildagi “False Claims Act” qonuni ilk bor xabar beruvchilarga undirilgan jarimaning ma‘lum foizini to‘lashni qonuniylashtirgan. 2010-yilda qabul qilingan Dodd-Frank Qonuni esa moliyaviy sohadagi xabar beruvchilarga aniqlangan qonunbuzarlik summalarining 10–30 foizi miqdorida moddiy mukofot berish tizimini joriy etgan. AQSh Qimmatli qog‘ozlar va birjalar komissiyasi (SEC) ma‘lumotlariga ko‘ra<sup>13</sup>, 2024-yilga qadar ushbu dastur doirasida xabar bergan shaxslarga jami 3,8 milliard dollardan ortiq mukofot pullari to‘langan.

Osiyo modelida (Janubiy Koreya, Yaponiya) markazlashgan davlat organi orqali xabar berish va himoya qilish tizimi ustuvor. Janubiy Koreyada 2011-yilda qabul qilingan “Protection of Public Interest Whistleblowers Act”<sup>14</sup> xabar beruvchilarga keng ko‘lamli himoya beradi, "Clean Portal" elektron platformasi orqali fuqarolar anonim tarzda xabar berish imkoniyatiga ega. Yevropa kontinental modelida esa (Germaniya, Fransiya) shaxsiy hayot daxlsizligi va ma‘lumotlarni maxfiy saqlanishga asosiy e‘tibor qaratiladi.

O‘zbekistonda xabar berish mexanizmining huquqiy asosi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 20, 21, 26 va 28-moddalarida mustahkamlangan. Xususan, qonunning 26-moddasi davlat organlari xodimlari zimmasiga korrupsiyaga oid huquqbuzarlik faktlari to‘g‘risida xabar qilish majburiyatini yuklasa, 28-moddasi ularning va boshqa xabar beruvchilarning hamda ularning oila a‘zolarining himoyasini ta‘minlash asosi va tartibini belgilaydi.

Xabar beruvchilarni iqtisodiy rag‘batlantirish masalasi esa Vazirlar Mahkamasining 829-sonli “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik to‘g‘risida xabar bergan yoki boshqacha tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish to‘g‘risida”<sup>15</sup>gi Nizomida o‘z ifodasini topgan.

Biroq, O‘zbekistonda xabar berish mexanizmining ishlash samaradorligi hali ham yetarli darajada emas. 2024-yilda mamlakatning 14 ta hududida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning

74 foizi korrupsiya haqida xabar berishga tayyor ekanligini bildirgan, ammo taxminan 30 foizi himoya yetarli darajada ta‘minlanmasligidan qo‘rqishi sababli xabar berishdan bosh tortishi aniqlangan<sup>16</sup>. So‘rovnoma qatnashchilarining 82,2 foizi elektron platformalar orqali xabar berishni afzal ko‘rsa-da, E-Anticor.uz platformasining texnik imkoniyatlari cheklangan ya‘ni

<sup>12</sup> [https://www.oecd.org/content/dam/oecd/ru/publications/reports/2024/11/baseline-report-of-the-fifth-round-of-monitoring-of-anti-corruption-reforms-in-uzbekistan\\_a7d9ab4c/0c24d6de-ru.pdf](https://www.oecd.org/content/dam/oecd/ru/publications/reports/2024/11/baseline-report-of-the-fifth-round-of-monitoring-of-anti-corruption-reforms-in-uzbekistan_a7d9ab4c/0c24d6de-ru.pdf)

<sup>13</sup> <https://corpgov.law.harvard.edu/2024/04/25/a-proven-success-the-sec-whistleblower-regime-provides-a-roadmap-for-doj-s-new-program/>

<sup>14</sup> [https://www.whistleblowers.org/south-koreas-whistleblower-protection-and-reward-system/#:~:text=Reporting%20Corruption%20in%20the%20Private,KRW%20\(about%20\\$30%2C000%20USD\).](https://www.whistleblowers.org/south-koreas-whistleblower-protection-and-reward-system/#:~:text=Reporting%20Corruption%20in%20the%20Private,KRW%20(about%20$30%2C000%20USD).)

<sup>15</sup> Vazirlar Mahkamasining 829-sonli “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik to‘g‘risida xabar bergan yoki boshqacha tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish to‘g‘risida” Nizomi <https://lex.uz/docs/-5193571>

<sup>16</sup> [https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/advancing-corruption-reporting-uzbekistan-depth-research-and-whistleblower-protection\\_en#:~:text=15%20November%202024%20%2D%20The%20Anti,7.4%25%20not%20considering%20it%20corruption.](https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/advancing-corruption-reporting-uzbekistan-depth-research-and-whistleblower-protection_en#:~:text=15%20November%202024%20%2D%20The%20Anti,7.4%25%20not%20considering%20it%20corruption.)

mobil ilovaning funksionalligi to'liq rivojlanmagan, murojaatni real vaqtda kuzatib borish (tracking) imkoni mavjud emas shuningdek, kripto-anonim xabar berish mexanizmi joriy etilmagan.

Eng jiddiy muammolardan biri — xabar beruvchilarni himoya qilish bo'yicha alohida qonunning yo'qligidir. 2021-yilda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish to'g'risida"<sup>17</sup>gi qonun loyihasi e'lon qilingan bo'lsa-da, u hozirga qadar qabul qilinish jarayonida qolmoqda. Bu esa amaldagi himoya mexanizmi deklarativ xarakterga ega bo'lib qolishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, xabar bergan shaxslarni mehnat sohasida ta'qiblardan himoya qilish, ularning murojaatlarini ko'rib chiqish muddatlari hamda tartibi amaldagi Mehnat kodeksida aniq mustahkamlanmagan.

### Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, korrupsiya qadimiy tarixga ega bo'lgan, bugungi kunda ham jamiyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid solayotgan ijtimoiy-huquqiy illatdir. Uning yillik jahon iqtisodiyotiga yetkazayotgan zarari 5,75 trillion dollargacha yetishi uni makroiqtisodiy xavf-xatar sifatida qabul qilishni taqozo etadi.

Ikkinchidan, O'zbekistonda 2016-yildan boshlab korrupsiyaga qarshi kurashishning yaxlit davlat siyosati shakllantirilgan bo'lib, huquqiy baza, institutsional tuzilma Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, komplayens-nazorat bo'linmalar va raqamli mexanizmlar E-Anticor.uz, "1253" hamda boshqa vazirlik va tashkilotlarning ishonch telefonlari elektron platformalari yaratilgan. Biroq ushbu mexanizmlarning samaradorligi hali ham yetarli emas: 2024-yildagi 4 176 ta murojaatdan atigi 1,2 foizi ijobiy hal etilganligi buning yaqqol isbotidir.

Uchinchidan, korrupsiyaga qarshi mavjud mexanizmlar orasida xabar berish mexanizmi o'zining tabiati va xalqaro statistik ma'lumotlar (ACFE tadqiqotiga ko'ra, firibgarlikning 40 foizi aynan whistleblowing orqali aniqlangan) bilan eng samarali vosita hisoblanadi. Korrupsiyaviy jinoyatlarning yopiq, ikki tomonlama xususiyati bu mexanizmning muqobili yo'qligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, O'zbekistonda xabar berish mexanizmining to'liq samara berishi uchun xabar beruvchi shaxslarni ijtimoiy, huquqiy, psixologik va iqtisodiy jihatdan himoyalovchi alohida qonunni qabul qilish, moddiy rag'batlantirish tizimini amalda ishga solish, elektron platformani xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish hamda xabar beruvchilar ombudsmani institutini tashkil etish kabi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Umuman olganda, xabar berish mexanizmining korrupsiyaviy jinoyatlarni ochishdagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Ushbu mexanizmni samarali ishga solish nafaqat korrupsiya darajasining pasayishiga, balki fuqarolik jamiyatining davlat boshqaruviga faol jalb etilishiga, davlat organlariga bo'lgan ishonchning oshishiga va oxir-oqibat huquqiy davlat tamoyillarining mustahkamlanishiga olib keladi. Bu esa O'zbekistonning Transparency International reytingidagi o'rnini ham sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladi.

### Takliflar

O'tkazilgan tahlil natijalari asosida O'zbekistonda xabar berish mexanizmini takomillashtirish yuzasidan quyidagi amaliy takliflarni ilgari suriladi.

Birinchidan, "Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar beruvchi shaxslarni himoya qilish to'g'risida"gi qonunni tezroq qabul qilish zarur. Mazkur qonun Yevropa Ittifoqi 2019/1937-sonli Direktivasi va Yevropa Kengashining CM/Rec(2014)7-sonli Tavsiyasi tamoyillari asosida xabar beruvchilarga nisbatan har qanday ta'qibni taqiqlashi, maxfiylik kafolatlarini kuchaytirishi, uch bosqichli xabar berish tizimini (ichki, tashqi va jamoatchilikka oshkor qilish) hamda himoya orderlarini joriy etishni nazarda tutishi lozim. Shuningdek, mehnat

<sup>17</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2020/12/25/anticorruption/>

kodeksiga xabar bergan xodimni asossiz intizomiy jazoga tortish, lavozimini pasaytirish yoki kamsitishdan himoya qiluvchi maxsus normalar kiritish talab etiladi.

Ikkinchidan, moddiy rag'batlantirish tizimini isloh qilish, faqat yozma minnatdorlik bilan cheklanmasdan, AQSh Dodd-Frank modeli asosida aniqlangan korrupsiyaviy zarar summalarining 5–15 foizini xabar beruvchiga mukofot sifatida to'lash mexanizmini joriy etish kerak. Buning uchun byudjetdan maqsadli mablag' ajratish va to'lovlarni muvofiqlashtirish uchun Agentlik tarkibida maxsus bo'linma tashkil etish, shuningdek, "Korrupsiyaga qarshi kurashga hissa qo'shganligi uchun" xabar bergan shaxslarni maxsus ko'krak nishoni bilan taqdirlash kabi amaliyotni joriy etish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, E-Anticor.uz platformasini Janubiy Koreyaning "Clean Portal" modeli asosida modernizatsiya qilish maqsadga muvofiq. UNDP va Koreya ACRC hamkorligida amalga oshirilayotgan loyiha doirasida platforma funktsionalligini tubdan oshirish, murojaatlarning real vaqtda kuzatilishi (tracking tizimi), anonim murojaatlar uchun kuchli kriptografik himoya, blockchain texnologiyasini integratsiya qilish va mobil ilova orqali xabar berish imkoniyatini kengaytirish zarur. Platformada sun'iy intellektga asoslangan dastlabki tahlil tizimini joriy etish murojaatlarni tezkor tartiblash va tegishli organlarga yo'naltirish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga olib keladi.

To'rtinchidan, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda, xabar beruvchi shaxslarning huquqlari buzilganida mustaqil tarzda aralasha oladigan maxsus organ - xabar beruvchilar Ombudsmani yoki maxsus himoya komissiyasi tashkil etish. Mazkur organ xabar beruvchilarga bepul yuridik yordam ko'rsatishi, ta'qib qilish holatlarini tekshirishi va tegishli organlarga majburiy ko'rsatmalar berish vakolatiga ega bo'lishi lozim.

Beshinchidan, fuqarolar orasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi tizimli targ'ibot-tashviqot ishlarini muntazam ravishda amalga oshirish juda muhim hisoblanadi. Fuqarolar ongida shakllanib qolgan "xabar bersam chaqimchilik qilgan bo'laman", "xabar berganim bilan baribir biron chora ko'rilmaydi", "xabar berib nima qilaman, och qornim tinch qulog'im" singari eskicha qarashlarni bartaraf etish - jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lmish oiladan bolalar ruhida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish orqali amalga oshirilishi zarur. Bu borada maktab va oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusidagi fanlarni majburiy o'quv dasturiga kiritish hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng auditoriya uchun mo'ljallangan targ'ibot kampaniyalarini muntazam olib borish tavsiya etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://www.bakertilly.global/insights/corruption-the-shadow-on-global-development>
2. <https://www.un.org/sg/en/content/sg/statements/2018-12-09/secretary-generals-message-international-anti-corruption-day-scroll-down-for-french-version?hl=ru-RU>
3. O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi 419-sonli Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida Qonuni <https://lex.uz/docs/-3088008>
4. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni <https://lex.uz/docs/-3107036>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 29.06.2020 yildagi PQ-4761-sonli Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi qarori <https://lex.uz/docs/-4875782>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 27.11.2023 yildagi PF-200-sonli Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-6676585>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 16.02.2026 yildagi PF-21-son Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil

davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni <https://lex.uz/docs/-8050769>

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 05.06.2024 yildagi O'RQ-931-sonli Manfaatlari to'qnashuvi to'g'risidagi Qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-6952742>

9. [https://uza.uz/uz/posts/2024-yilda-korrupsiya-bilan-bogliq-5-ming-716-jinoyat-sodir-etilgan\\_679303#:~:text=2024%20yilda%20korrupsiyaga%20oid%20jinoyatlar%20sodir%20etish,yilda%20respublika%20bo'yicha%20jami%206%20ming%20898](https://uza.uz/uz/posts/2024-yilda-korrupsiya-bilan-bogliq-5-ming-716-jinoyat-sodir-etilgan_679303#:~:text=2024%20yilda%20korrupsiyaga%20oid%20jinoyatlar%20sodir%20etish,yilda%20respublika%20bo'yicha%20jami%206%20ming%20898)

10. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/11/transparency-international/>

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2026/02/08/corruption/>

2. [https://www.oecd.org/content/dam/oecd/ru/publications/reports/2024/11/baseline-report-of-the-fifth-round-of-monitoring-of-anti-corruption-reforms-in-uzbekistan\\_a7d9ab4c/0c24d6de-ru.pdf](https://www.oecd.org/content/dam/oecd/ru/publications/reports/2024/11/baseline-report-of-the-fifth-round-of-monitoring-of-anti-corruption-reforms-in-uzbekistan_a7d9ab4c/0c24d6de-ru.pdf)

3. <https://corpgov.law.harvard.edu/2024/04/25/a-proven-success-the-sec-whistleblower-regime-provides-a-roadmap-for-doj-s-new-program/>

14. [https://www.whistleblowers.org/south-koreas-whistleblower-protection-and-reward-system/#:~:text=Reporting%20Corruption%20in%20the%20Private,KRW%20\(about%20\\$30%2C000%20USD\).](https://www.whistleblowers.org/south-koreas-whistleblower-protection-and-reward-system/#:~:text=Reporting%20Corruption%20in%20the%20Private,KRW%20(about%20$30%2C000%20USD).)

15. Vazirlar Mahkamasining 829-sonli "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik to'g'risida xabar bergan yoki boshqacha tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish to'g'risida" Nizomi <https://lex.uz/docs/-5193571>

16. [https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/advancing-corruption-reporting-uzbekistan-depth-research-and-whistleblower-protection\\_en#:~:text=15%20November%202024%20%2D%20The%20Anti,7.4%25%20not%200considering%20it%20corruption.](https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/advancing-corruption-reporting-uzbekistan-depth-research-and-whistleblower-protection_en#:~:text=15%20November%202024%20%2D%20The%20Anti,7.4%25%20not%200considering%20it%20corruption.)

17. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/12/25/anticorruption/>